

---

## IFTORLIK YO‘QLOVI



### **Ramazon-mehr va saxovat oyi!**

Ramazon oyi munosabati bilan Qo’shtepa tumanidagi mahallalarda ham ehtiyojmand oilalar uchun iftorlik dasturxonlari tashkil etilmoqda. Jumladan, tuman hokimi Ilyosbek Novikov va sektor rahbarlari mahallalarda bo‘lib, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar xolidan xabar olishmoqda.



Xususan, tuman hokimi Ilyosbek Novikov Ramazon oyi munosabati bilan Karnaychi mahallasi, Archazor ko‘chasida yashovchi Masturaxon Ahmedovalarning xonadonida bo‘ldi. Tuman rahbari kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan Masturaxon Ahmedova va farzandlarini yo‘qlab, ularning xolidan xabar oldi. Iftorlikda mehmonlar va mezbonlar dasturxon atrofida jam bo‘lishdi.

Shuningdek, ushbu oilaga “Ramazon tuhfası” sifatida kundalik turmushda zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi.

O‘zlariga ko‘rsatilgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikdan mamnun bo‘lgan xonadon egalari, tinch va osoyishta yurtimizga shukrona aytib, duoda bo‘ldilar.

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-04-20 08:24:29